

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TUTUQ BELGISINI O'RGATISH DARSLARIGA INNOVATSION VA INTEGRATSION YONDASHUV


Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi
Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
“Boshlang‘ich ta‘lim” ta‘lim yo‘nalishi talabasi

INNOVATIVE AND INTEGRATED APPROACH TO THE TEACHING LESSONS OF HAND SIGNS IN PRIMARY GRADES

Shukurullayeva Nodira daughter of Kahramon,
student of "Elementary Education", Faculty
of Pedagogy, Urganch State University

ИННОВАЦИОННЫЙ И КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЗНАКУ АПСТРОФА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Шукуруллаева Нодира Кахрамон кизи,
студентка педагогического факультета,
«Начальное образование» Ургенчского
государственного университета



<https://orcid.org/0009-0001-6787-8796>
nodirashukurullayeva6@gmail.com

+99899 4289179

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tutuq belgisini o‘rgatishda foydalanish mumkin bo‘lgan metodlar keltirib o‘tilgandir. Shu bilan birga, tutuq belgisini tushuntirish darslariga innovatsion hamda integratsion yondashuv usullari nazariy va metodik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning kreativ fikrlashini ta‘minlab beruvchi metodlardan foydalanish ta‘lim oluvchilarning ta‘lim jarayoniga ijodiy yondashuvini, mustaqil fikrlay olish qobiliyatini, yangiliklarni osonlik bilan qabul qilish va yaratishga moyil bo‘lish kabi xususiyatlarini shakllantirishini ta‘minlashi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tutuq belgisi, didaktika, innovatsiya, integratsiya, yondashuv, faoliyat, aloqadorlik.

Abstract: In this article, the methods that can be used to teach the apostrophe sign to primary school students are mentioned. At the same time, the methods innovativa and integrated approach to teaching the apostrophe sign are theoretically and methodologically justified. Also, the article provides ideas that the use of methods that ensure students’ creative thinking ensures the formation of students’ creative approach to the educational process, the ability to think independently, thr ability to easily accept news and the tendency to create.

Keywords: apostrophe sign, didactics, innovation, integration, approach, activity, releynance.

Аннотация: В данной статье упоминаются методы, которые можно использовать для обучения знаку апострофа учащихся начальных классов. При этом инновационные методы и комплексный подход к обучению знаку апострофа теоретически и методологически обоснованы. Также в статье приводятся идеи о том, что использование методов, обеспечивающих творческое мышление студентов, обеспечивает формирование у студентов творческого подхода к учебному процессу, умения самостоятельно мыслить, способности легко воспринимать новости и склонности к творчеству.

Ключевые слова: знак апострофа, дидактика, инновация, интеграция, подход, активность, опора.

KIRISH. Jamiyat har tomonlama rivoj topayotgan bir pallada o'quvchilarning ham ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish hamda mavzu materiallarini o'rgatishning yangicha usullarini topish, bu masalaga ham innovatsion jihatdan, ham integratsion jihatdan yondashish zarurdir. Shuningdek, pedagoglar ham o'zlarining metodik jihatdan tajribalarni orttirishi, metodlarga boy tarzda dars o'tish ko'nikmalarini egallashi zarurligi dolzarb muammolardan sanaladi. Bu o'rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlarning ta'lim olishiga qaratilayotgan va qaratilishi shart bo'lgan e'tibor haqidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tsam:

“Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlari avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi...

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.” [1]

Shunday ekan, ona tilimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan imloni o'rgatish jarayonini ham har tomonlama shakllantirish yo'llarini o'ylab chiqqan holda tutuq belgisini o'rgatish darslariga yangiliklarga tayangan holda va boshqa fanlar bilan bog'lagan holda yondashuvni ishlab

chiqishimiz darkor. Shu bilan bir qatorda, ayrim masalalarni ta'kidlab o'tishimiz joizki, o'quvchilarga bilim berish jarayonida o'rgatilayotgan mavzu materialining har bir jihatiga, ya'ni boshqa mavzular yoki fanlar bilan aloqadorligiga, yangi joriy etilayotgan texnologiyalarning qaysi biri bilan bog'lashimiz mumkinligiga ko'proq e'tibor qaratilishi zaruriy shartlardandir.

ASOSIY QISM. Ushbu tadqiqot ishida boshlang'ich sinf darslarida tutuq belgisini o'quvchilarga tushuntirishda yangi metodlardan foydalanish va boshqa darslar bilan bog'lagan holda darsni tashkil qilish masalasi tahlil qilinadi hamda yangi metodlar keltirib o'tiladi. Biz so'z yuritayotgan belgi, eng avvalo, hech qanday tovush ifodalamaydi. Shu bilan bir qatorda, ayrim so'zlarda ma'no farqlash vazifasini bajaradi. O'quvchilar uchun eng katta qiyinchilik tug'diradigan muammo esa, aynan tutuq belgisining tovush ifodalamasligidir. Bunda, ta'lim oluvchilar talaffuz qilmagan elementlarini yozishda muammoga duch keladilar. Ushbu holatlarda esa, darsga aynan innovatsion hamda integratsion yondashuv pedagogning eng katta yordamchisiga aylanadi. O'quv jarayonini boshqa fanlar yoki ma'lumotlar bilan bog'lagan holda tashkil qilishni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin:

1. Qaysi fanlar bilan aloqador?

2. Bog'liq fan bilan qanday tushuntirish mumkin?

3. O'quvchilarga ma'lum bo'lgan qaysi sodda predmetga o'xshatish foydali?

Birinchi navbatda, o'rganilayotgan mavzu ma'lumotlarining qaysi fan bilan aloqadorligi masalasiga to'xtalib o'tish lozim deb topildi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bir-biri bilan bog'liq mavzular o'rganilganda yoki eng muhimi, fanlar bir-biri bilan bog'lab o'qitilganda, o'quvchilarda borliq va undagi qonuniyatlar bo'yicha, o'rganayotgan bilimlari bo'yicha yaxlit tasavvur paydo bo'ladi hamda bilimlarni o'zlashtirishi oson bo'ladi, bilimlarini hayotiy faoliyatlarda qo'llash ko'nikmasi ham shakllanib boradi. Bugungi tutuq belgilari haqida tushuncha hosil qilish darsini esa, bevosita o'qish, matematika hamda tabiiy fanlar bilan bog'lashimiz mumkin.

Ayni paytda, o'rganuvchilarga dars berishda foydalaniladigan darsliklarga to'xtaladigan bo'lsak, fanlararo integratsiyaning yaqqol aksini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, matematika bilan birga o'rganiladigan yondosh mavzu "Sport turlari" tushunchasi bo'lsa, aynan shu darsning barcha misol, masala hamda topshiriqlarining mazmuni sport turlari haqida beriladi. Bundan tashqari, ona tili, o'qish savodxonligi darsliklarida ham aynan sport turlari haqida ma'lumotlar va qiziqarli topshiriqlar berib boriladi. Bu o'quvchilarning diqqatini batamom bir mavzu ustiga jalb qilishni

ta'minlaydi, diqqat bo'linishlarining oldini oladi.

Keyingi masala esa aloqador fan bilan qay tarzda bog'lashga qaratilgandir. Bu shunday tashkil qilinishi lozimki, o'quvchi o'rganayotgan material yaxlit bir ma'lumot kabi tuyulishi zaruriy shartlardandir. Masalan, tutuq belgisini o'rgatishda uni tabiiy fanlar bilan bog'lagan holda "*Kapalakni qo'ndir*" metodidan foydalanishimiz mumkin. Matematika bilan esa, "9" soniga qiyoslagan holda bog'lashimiz ayni muddao.

METODOLOGIYA. Tadqiqot ishida eng zarur metodlar bular kuzatish, eksperiment metodlari sanaladi. Dars jarayonida duch kelish ehtimoli bo'lgan qiyinchiliklar, muammolarni aniqlash uchun kuzatish qanchalik ahamiyatli ko'rinsa, tutuq belgisini o'rgatishda qo'l keladigan usullarni sinab ko'rish shunchalik e'tiborga molik. Bundan tashqari, adabiyotlar tahlili, tavsiyalar muhim o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ta'lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish orqali o'quv-bilish jarayoni natijasida samaradorlikka erishish nazarda tutilar ekan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

1-ko'rinish

- Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya, bunda o'quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya'ni oldingi o'quv materiali keyingisini to'ldiradi ammo hech qachon bir-birini takrorlamaydi.

2-ko'rinish

- O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya, bunda ham takror tarzda beriladigan taftologiya asosidagi o'quv materiallarining oldini olish uchun dasturlarda mavzulararo uyg'unlikni ta'inlash muhim ahamiyatga ega.

3-ko'rinish

- Modullashgan integratsiya, bunday integratsiya doirasida turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalar muayyan bir tizimga solingan holda, uzviy tarzda o'quvchilarga taqdim etiladi

4-ko‘rinish

- Integrativ dasturlar, ushbu turdagi dasturlar bir necha o‘quv predmeti yoki o‘quv fanlariga oid mavzularni uyg‘unlashgan holda taqdim etishni nazarda tutadi.

5-ko‘rinish

- Mavzulararo integratsiya, bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o‘quv materiallarini boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan o‘quv materiallari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Ta’limda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy jihatdan, ham pedagogik, gigiyenik va fiziologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. [2, 49]

O‘quvchilarga tushuntirishda ushbu integratsiyalash darajalarining birinchi hamda uchinchi ko‘rinishlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, maqolamizda so‘z borayotgan birligimizga oid bilimlar berish bu orfografika bo‘limi bilan uzviy bog‘liqdir. Orfografiya esa, o‘z navbatida morfologiya, sintaksisni o‘zi bilan ergashtirib keladi.

Tutuq belgisiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u 2 xil vazifani bajaradi:

1. Unlini undoshdan ajratib talaffuz qilish (sur‘at, jur‘at, san‘at).

2. Unlining cho‘zilib talaffuz qilinishini ta‘minlash (ma‘no, da‘vo, me‘mor, iste‘dod, she‘r)

TAHLIL VA NATIJALAR.

Tadqiqot natijasida shuni aytish ma‘qulki, tutuq belgisini o‘rgatish darslariga innovatsion hamda integratsion yondashuv

uchun bir qancha metodlar yaratildi. Dastlab, shuni ayta olamizki, ttuq belgisini aynan eslab qolish uchun uning shaklini matematikadagi “9” soniga o‘xshatish juda samarali natija beradi va o‘quvchilarning eslab qolishlarini taqozo etadi.

“*Kapalakni qo‘ndir*” metodida gullarga so‘zlar tutuq belgisiz yozilgan bo‘ladi. Bu yerda aytilgan element qo‘yilmaydigan so‘zlar ham aralashirib berilgan bo‘ladi. Kapalakchada esa belgi mavjud va uni kerakli gulga qo‘ndirishi, to‘g‘ri so‘zga olib borib qo‘yish talab qilinadi. Bu metodning tabiiy fanlar bilan bog‘liqligini ayta olamiz. Shu qatorda, o‘quvchilarning uzoq vaqt davomida mavzu materiallarini o‘rganib, charchashining oldini oladi.

“*Topqirlar o‘yini*” mazkur bellashuvda qatnashuvchilar e‘tiboriga imloviy jihatdan xato yozilgan so‘zlar, to‘g‘ri yozilganlar havola qilinadi va ularga yanglish keltirilganlarini aniqlash vazifa bo‘ladi.

Masalan:

Mano
Manaviyat
Havo
E‘tibor
Meva

Nemat
Hayot
E‘lon
Ta‘qiq
An‘ana

“*Quvnoq qarsaklar*” metodida o‘quvchilarga og‘zaki topshiriqlar aytiladi. Bunda boshlovchi ketma-ket so‘zlarni aytadi. Tarkibi o‘rganayotgan birligimiz bilan hamda birligimizsiz yoziladigan so‘zlardan tashkil topgan. O‘quvchilar esa tutuq belgisi bilan yoziladigan so‘zlarga bitta qarsak, ham u tarzda, ham bu ko‘rinishda yoziladigan so‘zlarga (sur‘at, da‘vo, she‘r) ikki marta qarsillatishadi. Umuman tutuq belgisiz yoziladigan so‘zlarga esa umuman chapak chalmasliklari talab qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa sifatida shuni aytish joizki, innovatsion hamda integratsion yondashuv asosida tashkil qilingan darslar orqali o‘quvchilarning ta‘lim olish samaradorligini eng yuqori darajaga ko‘tarishimiz mumkin bo‘ladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan metodlar orqali esa boshlang‘ich sinf ona tili darslarini yanada qiziqarli va esda qoladigan tarzda o‘tkazishimiz mumkin bo‘ladi. Zero, har bir pedagogning asosiy vazifasi bu ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini

kelgusida qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017, 50 b.
2. R. A. Mavlonova, N. H. Rahmonqulova. Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2009, 193 bet.
3. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova. Boshlang‘ich ta‘limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. -Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 2013, 270 b.
4. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent: “Nosir”, 2009, 350 bet.
5. www.ziyouz.com
6. www.lex.uz

